

**BIOMASSA PIROLIZI TAJRIBALARINING MAHSULOT BALANSI TAHLILI****Uzakov G.N.¹, Davlonov X.A.¹, Rustamov S.Sh.²**¹*Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, Qarshi, O'zbekiston*²*Buxoro muhandislik-texnologiya institute, Buxoro, O'zbekiston*

Annotatsiya: Ushbu maqolada biomassa chiqindilarini piroliz qurilmasida termik qayta ishslash va muqobil yoqilg'ilar olish jarayoni tajriba va tahlillar asosida keltirilgan. Olingan energetik yoqilg'ilar maishiy, sanoat hamda energetika tizimida samarali qo'llash mumkin. Muqobil energetik yoqilg'ilar ekologik jihatdan toza hisoblanib, atrof-muhit ifloslanishi, CO₂ emissiyasi, yoqilg'i va tabiiy resurslariga qaramlik muammolarini hal etishga yordamlashadi. Tadqiqotda, turli xil biomassa chiqindilarini 400 °C gacha haroratda qizdirib pirolizlash natijalari keltirilgan. Biomassadan ajralib chiqgan biogaz, suyuq, va bioko'mir yoqilg'ilaring miqdori, xususiyatlari va ularga tasir etuvchi omillar, ilmiy-nazariy tahlilar asosida amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: Biomassa, energetika, yoqilg'i, piroliz, reaktor, bioyoqilg'i, biogaz, elektr energiya, gaz quvuri.

АНАЛИЗ МАТЕРИАЛНОГО БАЛАНСА ПО ПИРОЛИЗУ БИОМАССЫ**Узаков Г.Н.¹, Давлонов Х.А.¹, Рустамов С.Ш.²**¹*Каршинский инженерно-экономический институт, Карши, Узбекистан*²*Бухарский инженерно-технологический институт, Бухара, Узбекистан*

Аннотация: В данной статье на основе опыта и анализа представлены термическая переработка отходов биомассы в пиролизном устройстве и процесс получения альтернативных видов топлива. Полученные энергетические топлива могут быть эффективно использованы в бытовых, промышленных и энергетических системах. Альтернативное энергетическое топливо считается экологически чистым и помогает решить проблемы загрязнения окружающей среды, выбросов CO₂, зависимости от топлива и природных ресурсов. В работе представлены результаты пиролиза различных отходов биомассы при температуре до 400 °C. Количество, характеристики и коэффициенты биогазового, жидкого и биоугольного топлива, выделенного из биомассы, были проведены на основе научных и теоретических анализов.

Ключевые слова: Биомасса, энергия, топливо, пиролиз, реактор, биотопливо, биогаз, электричество, газопровод.

ANALYSIS OF THE PRODUCTION BALANCE OF BIOMASS PYROLYSIS EXPERIMENTS**Uzakov G.N.¹, Davlonov X.A.¹, S.Sh. Rustamov²**¹*Karshi Engineering Economics Institute, Karshi, Uzbekistan*²*Bukhara Engineering Technology Institute, Bukhara, Uzbekistan*

Abstract: This article presents the thermal processing of biomass waste in a pyrolysis device and the process of obtaining alternative fuels based on experience and analysis. The obtained energy fuels can be effectively used in household, industrial and energy systems. Alternative energy fuels are considered ecologically clean and help to solve the problems of environmental pollution, CO₂ emissions, dependence on fuel and natural resources. In the study, the results of pyrolysis of various biomass wastes at temperatures up to 400 °C are presented. The quantity, characteristics





and factors of biogas, liquid, and biochar fuels separated from biomass were carried out based on scientific and theoretical analyses.


Keywords: Biomass, energy, fuel, pyrolysis, reactor, biofuel, biogas, electricity, gas pipeline.

Rivojlanayotgan taraqqiyot davrida tabiiy resurslarning kamayib borishi va ularni qazib olish, tashish, istemolchilarga etkazib berish ishlari dunyo miqyosida global muammolardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyaning asosiy qismi tabiiy resurslarni yoqish orqali amalga oshiriladi. Ushbu yoqilg'ilarni tejash, kelajak avlodga etkazish masalalari ko'plab olimlar o'rtaida bahs munozaraga sabab bo'lmoqda. Energetika sanoatida energetik yoqilg'ilarni arzon va xavfsiz ishlab chiqarish utuvor yo'naliishlardan biri hisoblanadi. Shu sababli energetik yoqilg'ilarni, qishloq xo'jaligi va sanoat chiqindilaridan ishlab chiqarish hozirgi zamон talabiga mos bo'ladi. Biomassa chiqindilari esa turi va miqdori jihatdan yildan yilga oshib bormoqda. Hozirgi vaqtida biomassa energiyasining dunyodagi ulushi umumiy energiya iste'molining 14% ni tashkil etib yildan yilga ortib borishda davom etmoqda. 2040-yilga kelib biomassa hissasining 23,8% gacha o'sishini ko'rsatadigan prognozlar ham mavjud [1].

Jahonda boshqa energiya manbalari bilan bir qatorda shamol, quyosh, gidroenergetika va biomassa energiyasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Ko'p va ishonchli manba sifatida tanilgan, biomassa hozirgi kunda qayta tiklanadigan energiya sohasida muhim rol o'ynaydi.

Biomassaning xususiyatlari hamda konvertatsiya jarayonlari uchun turli xil texnologiya, energiya va materiallar, shu jumladan biokimyoviy, termokimyoviy va fizik-kimyoviy konvertatsiya turlari mavjud [2].

Quyidagi (1-rasm) sxemada biomassaning konvertatsiya qilish usullari va yakuniy mahsulotlarining soddalashtirilgan sxemasi keltirilgan.




1-rasm. Biomassaning konvertatsiya qilish usullari va yakuniy mahsulotlarining soddalashtirilgan sxemasi.

Tabiiy qattiq biomassani to'g'ridan-to'g'ri yoqish va yoqilg'i sifatida qo'llashning bir qator muammolari mavjud. Asosiy muammolardan biri bu biomassaning yoqilg'i xom ashyosi sifatida energetik samarasining pastligi hamda uning to'g'ridan-to'g'ri yoqilishi natijasida vujudga keladigan ekologik zarar hisoblanadi. Jahonda olib borilayotgan tadqiqotlardan ma'lumki, biomassani termik qayta ishlash orqali suyuq va gazsimon yoqilg'ilar olish samarali usullardan biri hisoblanadi. Biomassadan olinadigan suyuq va gazsimon yoqilg'ilar, foydalanish jihatdan eng maqbul hisoblanib, energetik samarasini yuqori ekanligi aniqlangan [3]. Yaqin yillarda piroliz qurilmasidan foydalanish va bu qurilma yordamida muqobil yoqilg'ilar ishlab chiqarish uchun innovatsion texnologiyalar paydo bo'ldi. Keyinchalik biomassadan olingan yoqilg'ilar dvigatelda,

elektr generatorida yoqib elektr energiyasi hamda issiqlik energiyasi ishlab chiqarish uchun foydalanildi [4].

Biomassani qayta ishlash orqali nafaqat yoqilg'i va issiqlik energiyasi ishlab chiqarish balki elektr energiyasi ishlab chiqarish va ushbu texnologik jarayon orqali, energiya ta'minoti etib bormagan, markaziy ta'minotdan uzoqda joylashgan iste'molchilarni uzluksiz va ishonli energiya bilan ta'minlash samarador usul hisoblanadi. Mutaxasislarning ta'kidlashicha biomassadan olingan biogazning kaloriya (yonish issiqligi) qiymati tarkibidagi metanga qarab $20\text{-}25 \text{ MJ/m}^3$ ni tashkil etadi, bu esa 0,6-0,8 l benzini yonishiga tengdir. Shuningdek, 1,3-1,7 kg o'tindan 5-7 kVt/soat elektr energiyasi olish mumkinligi aniqlangan [5].

Biomassa chiqindilaridan energiya olish bo'yicha bugungi kunda jahoning ko'pgina mamlakatlari shug'ullanib kelmoqda va bu borada bir qancha ishlar olib borilmoqda. Masalan, Finlyandiya davlatida 2016-yildan boshlab biologik chiqindilarni to'g'ridan to'g'ri utilizatsiya qilish taqiqlandi, buning natijasida chiqindilarni qayta ishlash va energetik maqsadlarda foydalanishga keng imkoniyatlar yaratilib chiqindilarni qayta ishlash ko'lami oshirildi. 2017-yilda chiqindilar gazidan 520,2 GVt/soat issiqlik energiyasi va 178,4 GVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqarildi. Shu yilning o'zida avtomobil yoqilg'isi sifatida $30,2 \pm 0,8 \text{ GVt / soat}$ biogaz ishlataligan. Bu oldingi yilga nisbatan 41 % ga oshirilgan [6]. Finlandiya davlatida chiqindilar gazidan ishlab chiqarilgan umumiy energiya balansi 2-rasmida keltirilgan



2-rasm. Finlandiya davlatida chiqindilar gazidan ishlab chiqarilgan energiya (1994-2017).

Biomassa chiqindilaridan energik yoqilg'ilar olish va ularni samarali qo'llash bo'yicha jahon miqyosida ko'plab olimlar tadqiqot olib borgan hamda ularning xizmati beqiyosdir. Rossiyalik tadqiqotchi Lavrenov V.A. o'z tadqiqotlarida yog'ochli biomassani ikki bosqichli termal konversiyalash jarayonida, harorat rejimi bo'yicha sintez gazidagi qatronlar va namlikning o'ziga xos tarkiblarini tadqiqot qilgan. Yog'ochli biomassani konvertatsiya qilish natijasida olingan dizel yoqilg'isi va sintez gazini birgalikda yoqish uchun, konvertatsiya qilish blokini gaz-porshenli elektr stantsiyasi va suyuq yoqilg'ida issiq suv qozoni bilan birgalikda ishlatalishni eksperimental ravishda amalga oshirgan [7].

Serdyukova Y.Y olib borgan tadqiqotlarida biomassadan maksimal miqdorda suyuq bioyoqilg'i ishlab chiqarish uchun optimal xomashyo va texnologik parametrlarini aniqlangan. Shuningdek u o'simlik xom ashmosini qayta ishlash jarayonida sekin piroлизlash natijasida o'lchami $1,0\text{-}2,5 \text{ sm gacha bo'lgan}$, massa zichligi $440,0 \text{ kg/m}^3$ va namlik miqdori 5% bo'lgan ignabargli daraxt opilkasi pirolizida suyuq mahsulotning 73,0% maksimal samaradorligiga erishgan [8].

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida olib bорilgan tadqiqotlarda issiқxonalarning tejamkor isitish ussulari hamda energiya yetib bormagan hududlarda muqobil energiya olish usullari






keng miqyosda o‘rganilgan. Piroliz qurilmasida issiqxonalarning isitish tizimi uchun biomassa va turli mahalliy organik chiqindilardan muqobil yoqilg‘i olish jarayonlari tadqiqot qilingan.

Tadqiqotchilar tomonidan yaratilgan “piroliz reaktori-issiqlik generatori” qurilmasida esa sutkasiga 600 kg gacha biomassa (mol go‘ngi, o‘simlik chiqindilari, va h.k.) ni qayta ishlash orqali, 100-120 m³ biogaz yoqilg‘isini olish imkonini bergan [9].

Olib borilgan tahlil va tadqiqotlardan so‘ng istemolchilarni uzlusiz muqobil energiya bilan ta’minlash hamda an’anaviy yoqilg‘i resurslarini tejash maqsadida qishloq xo‘jaligi mahalliy chiqindilari (o‘simlik chiqindilari, somon, g‘ozapoya, yog‘och chiqindilari, parranda, ot, shoxli mol ekskrementi va h.k) biomassasini termik usulda qayta ishlash hamda gazsimon, suyuq va qattiq muqobil yoqilg‘ilar olishga mo‘ljallangan tajriba piroliz qurilmasining prinsipial sxemasi ishlab chiqildi 4-rasm. Piroliz qurimasining asosiy jihozlari reaktor, kondensator, gazgolder hamda qo‘srimcha yordamchi jihozlardan tashkil topgan.

Piroliz qurilmasining asosiy jihizi hisoblanmish bioreaktoring konstruksiyasi slindr shaklida tayyorlandi.



4-rasm. Biomassadan piroliz usulida muqobil yoqilg‘i olish qurilmasining sxemasi.

1-Piroliz reaktori, 2- xomashyo yuklash qopqog‘i, 3- manometr, 4- bug‘-gaz quvuri, 5-kondensator-sovutgich, 6-7- separator, 8- gaz sarfini hisoblagich, 9- o‘choq, 10-11- gaz gorelkasi, 12- tutun quvuri, 13- zadvijka, 14-suv aylanish quvuri.

Biomassani termik qayta ishlash hamda muqobil yoqilg‘i ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan piroliz qurilmasi quvur ichida quvur tipida yasalgan bo‘lib bir vaqtning o‘zida issiqlik energiyasi ham olishga mo‘ljallangan. Tajriba qurilmasining fizik modeli 5- rasmda keltirilgan.



5-rasm. Tajriba qurilmasining fizik modeli.



Qishloq xo‘jalik va mahalliy biochiqindilar biomassasini termik qayta ishlab issiqxonaning issiqlik ta’minoti ta’minlash hamda energetik yoqilg‘ilar olishga mo‘ljallangan energiya samarador piroliz qurilmasining asosiy parametrlari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

PQ-35 piroliz qurilmasining asosiy parametrlari.

T/r	Parametrlar	Belgilanishi	O‘lchov birligi	Miqdori
1.	Bioreaktor hajmi	<i>V</i>	m ³	0,035
2.	Reaktordagi ishchi bosim	<i>P</i>	MPa	0,1
3.	Qurilmaning umumiy balandligi	<i>h</i>	m	1,2
4.	Qurilma egallaydigan maydon	<i>F</i>	m ²	3
5.	Bir marta yuklanadigan xom ashyo massasi	<i>m_{yuk}</i>	kg	7
6.	Bir sutkada ishlov beriladigan xom ashyo miqdori	<i>m_{sutka}</i>	kg	42
7.	Texnologik jarayon davomiyligi (sikl)	<i>τ</i>	soat	4
8.	Sutkada sikllar soni	<i>n</i>	sikl	6

Tajribaviy piroliz qurilmasida dastlabki tajriba sinov tadqiqotlari pomidor poyasi chiqindilari biomassasi ustida olib borildi va tadqiqot natijalari 2-jadvalga kiritildi.

2-jadval.

Biomassa pirolizining tajriba tadqiqot natijalari.

T/r	Parametr	Belgilanishi	O‘lchov birligi	Miqdori
1.	Yuklangan xom ashyo massasi	<i>m_{yuk}</i>	kg	7
2.	Xom ashyo o‘lchami	<i>d</i>	mm	5-15 mm
3.	Harorat rejimi	<i>t</i>	°C	150-400
4.	Ishchi bosim	<i>P</i>	KPa	100
5.	Piroliz davomiyligi	<i>τ</i>	soat	3
6.	Piroliz mahsulotlari:		%	
	- Biogaz		%	35
	- suyuq yoqilg‘i		%	20
	- ko‘mir		%	45
7.	Biogazning yonish issiqligi		MJ/m ³	18-20

Biomassani piroliz usulda qayta ishlash uchun sarflanadigan issiqlik energiyasining miqdori quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$Q_T = C_b \cdot m_b (t_2 - t_1), \text{ kJ} \quad (1)$$

Bu erda C_b – reaktorga yuklanadigan biomassaning solishtirma issiqlik sig‘imi, kJ/kg·k; m_b – biomassaning massasi, kg; t_1 – biomassaning boshlang‘ich harorati, °C; t_2 – biomassaning piroliz jarayoni oxiridagi harorati, °C.

Qarag‘ay (archa) igna barglari namunalarini ham biomassa sifatida olinib ushbu biomassa ustida tadqiqotlar olib borildi. Qurilmada sarflanadigan energiyani hisoblash uchun quyidagi ma'lumotlar qabul qilindi:

$$C_p = 1,5 \text{ kJ/kg·k}; m_b = 7 \text{ kg}; t_1 = 25 \text{ }^{\circ}\text{C}; t_2 = 425 \text{ }^{\circ}\text{C}.$$

$Q_T = 1,5 \cdot 7 \cdot (425 - 25) = 4200 \text{ kJ}$, ya’ni 4,2 MJ ga teng issiqlik energiyasi piroliz reaktorida jarayonning kerakli harorat rejimini yaratishda sarf bo‘ladi.

Piroliz qurilmasi reaktorining issiqlik balansini tuzamiz:

$$Q = Q_{qay.ishl} + Q_{isrof} - Q_r \quad (2)$$





Q – Qurilma reaktorida sarflanadigan umumi issiqlik miqdori, kJ; $Q_{qay.ishl}$ – biomassaning qayta ishlashda sarf bo‘ladigan issiqlik miqdori, kJ; Q_{isrof} – biomassani qayta ishlash vaqtida reaktorda sodir bo‘ladigan isroflar, kJ; Q_r – quyosh radiatsiyasi, kJ.

Piroлиз qurilmasining material balansi:

$$G_b = G_{BK} + G_{BG} + G_{BN} \quad (3)$$

Bunda, G_b – reaktorga yuklanadigan biomassa miqdori, kg; G_{BK} – piroлиз jarayonida hosil bo‘ladigan bioko‘mir massasi, kg; G_{BG} – piroлиз jarayonida hosil bo‘ladigan biogaz, kg; G_{BN} – piroлиз jarayonida hosil bo‘ladigan bioneft massasi, kg.

Ishlab chiqilgan bioreaktorning shakli slindr ko‘rininishida bo‘lib, u quvur ichida quvur tipida yasalgan, reaktorning o‘lchamlari: $d = 0,3$ m va $h = 0,49$ m.

Piroлиз reaktorining hajmini topamiz:

$$V = \frac{\pi d^2}{4} \cdot h = \frac{3,14 \cdot 0,3^2}{4} \cdot 0,49 = 0,03 \text{ m}^3 \quad (4)$$


Piroлиз reaktoriga yuklangan biomassa (qarag‘ay) ning zichligi $\rho = 200 \frac{\text{kg}}{\text{m}^3}$, o‘rtacha namligi 25-30%, hamda yuklangan massasi 7 kg ni tashkil etdi. Biomassadan olinadigan yoqilg‘ilar miqdori albatta biomassaning turi va tarkibiga bog‘liqdir. Yoqilg‘i olish jarayoni oxirida olingan yoqilg‘ilar tahlil qilinganda biomassaning umumi miqdori bo‘yicha 46% qattiq yoqilgi,

30 % piroлиз gazi hamda 25 % suyuq muqobil yoqilg‘ilar hosil bo‘ldi. Ajralib chiqgan yoqilg‘ilarning bir qismi reaktordagi jarayon haroratini yaratish uchun o‘z ehtiyojiga sarflandi. Piroлиз jarayonidan olinadigan yoqilg‘i turlari balansi tuzilda va tahlil qilindi (6-rasm).



6-rasm. Biomassa piroлизи jarayonining mahsulot balansi.

Biomassadan faqatgina issiqlik energiyasi emas balki elektr energiyasi ham olish imkonи mavjud. Bunda albatta kogeneratsion qurilmalardan foydalanish istiqbolli yechim hisoblanadi. Bunga sabab elektr energiyasi sanoatida piroлиз gazini dvigatelda yoqish biogazga nisbattan samaraliroq hisoblanadi. Dunyo olimlarining manbalariga ko‘ra 1 kVt elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun 0,29-0,31 m^3 piroлиз gazi yoki 0,36-0,38 m^3 biogaz sarflanishi aniqlangan [10]. Piroлиз gazining tarkibini tahlil qilganimizda asosiy gazning katta qismini metan tashkil etganligini ko‘rshimiz mumkin. Quyidagi diagrammada piroлиз gazining tarkibi (7-rasm) va olingan muqobil yoqilg‘ilarning rasmi (8-rasm) keltirilgan.



7-rasm. Piroliz gazining tarkibi.



8-rasm. Muqobil yoqilg'ilar.

Tajriba piroliz qurilmasida mahsulot balansi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki pomidor moyasi pirolizi natijasida yuklangan xom ashyoga nisbatan 35 % biogaz, 20 % suyuq va 45 % qattiq muqobil yoqilg'ilar olish mumkin. Mahaliy qarag'ay daraxti chiqindilarining pirolizi natijasida esa 30 % biogaz, 25 % suyuq hamda 46 % qattiq muqobil yoqilg'ilar olindi. Biomassa chiqindilaridan piroliz usulida yoqilg'i olish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki piroliz jarayonida olinadigan yoqilg'ilar reaktor harorati, biomassaning turi, o'lchami va namligiga bog'liq ekanligi aniqlandi. Shuningdek biomassadan qayta tiklanadigan qimmatli energiya manbai sifatida foydalanish mumkin. Chunki biomassadan piroliz usulida 3 turdag'i gaz, suyuq yoqilg'i va bioko'mir yoqilg'ilar olish va ularni turli xil energetik maqsatlarda qo'llash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. European Environment Agency Bio-waste in Europe-turning challenges into opportunities, 2020.
2. A Review of Renewable Energy Supply and Energy Efficiency Technologies April 2014. Shahrouz Abolhosseini, Almas Heshmati, Jörn Altmann.



3. Uzakov G.N., Davlonov Kh.A., Holikov K.N. Study of the Influence of the Source Biomass Moisture Content on Pyrolysis Parameters// Applied Solar Energy, 2018, Vol. 54, No. 6, pp, 481-484. (05.00.00; №4. Scopus CiteScore 2018, IF:0.9)
5. Uzoqova Yu.G., Davlonov X.A. O'zbekistonda biomassa energiyasidan foydalanish istiqbollari/ "XXI Asr – intellektual avlod asri" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. Qarshi. 20–21 iyun 2016 yil
6. А.В Сударев., Когенерационная энергетическая установка на основе водяного котла, сжигающего биотопливо. Доклад на первом всемирном конгресе Альтернативная энергетика и экология, Волга 2006.
7. Finland National Biogas Statistics 2017. https://www.stat.fi/static/media/uploads/tup/khkinv/fi_eu_nir_2017.
8. Лавренов Владимир Александрович, Экспериментальное исследование процесса двухстадийной термической конверсии древесной биомассы в синтез-газ. Диссертация на соискание ученой степени кандидата технических наук, Москва – 2016.
9. Сердюкова Екатерина Юрьевна, Разработка способа переработки растительного сырья и применения получаемых биопродуктов как высокоэнергетических веществ. На соискание ученой степени кандидата технических наук, Москва – 2021.
10. G.N.Uzoqov, X.A.Davlonov. Quyosh issiqxonalarini tejamkor isitish tizimlari. Monografiya. Toshkent 2019; 30-35.
11. Ильин Е.А., Болдин С.В., Пузиков Н.Т. Энергосберегающие когенерационные установки на биогазе // Международный студенческий научный вестник. – 2015

